SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA TAQLID SO‘ZLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UDK: 894.3

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophi (PhD) on philological sciences

Nuraliyev G‘olibjon Qurbonboyevich
Tog‘ay Murod asarlarida taqlid so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlari…...5

Нуралиев Ғолибжон Қурбонбоевич
Семантико-функциональные особенности подражательных слов в произведениях Тогай Мурад.……...23

Nuraliyev G‘olibjon Qurbonboyevich
Semantic and functional features of onomatopoeic words in the works of Togay Murod……..45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati……...……50
Список опубликованных работ
List of published works

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

NURALIYEV G‘OLIBJON QURBONBOYEVICH

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA TAQLID SO‘ZLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2841 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abdiyev Murodqosim Bolbekovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Hasanov Abdumannon Majidovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Maxmaraimova Shohista To‘xtashevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi ilmiy muassasa:	Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “ ____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Samarqand davlat universiteti 2-ARM binosi, 3-qavat faollar zali, _____. Tel.: (+99866) 240-38-49, faks (0 366) 239-11-40, (0 366) 239-12-47, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqami bilan ro‘xatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, (8366) 239-18-92, faks: (8366)). 239-11-40)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ da tarqatildi.
(2026-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

J.D.Eltazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.D.Marupova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

X.Z.Xayrullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida keyingi yillarda har bir tilni o‘z ichki imkoniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari asosida har tamonlama tavsiflash, lingvistikaning antroposentrik qonuniyatlari mezonlari asosida yondashish hamda uning masalalariga ushbu yondashuv orqali yechim topish dolzarb jihatlardan biri sifatida qaralmoqda. Shuningdek, badiiy matn tilining birliklarini lingvistik jihatdan chuqur ilmiy aniqlashtirish, ularning semantik imkoniyatlari hamda funksional xususiyatlarini tizimlashtirish bugungi kunda eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Mazkur yondashuv badiiy nutqning mazmun ko‘chirish (ma’no berish) mexanizmlarini, til vositalarining matn tarkibidagi rolini va kommunikativ-estetik vazifalarini yoritishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida taqlid so‘zlar alohida leksik-grammatik birlik sifatida uzoq yillardan buyon e’tiborni tortib kelmoqda. Garchi ushbu so‘z turkumiga oid dastlabki ilmiy qarashlar ancha oldin shakllangan bo‘lsa-da, ularni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tizimli tavsiflash XX asr boshlaridan boshlab jadallashdi. Hozirgi davr tilshunosligida taqlid so‘zlarning morfologik tuzilishi, funksional-semantik tabiati, stilistik imkoniyatlari va strukturaviy xususiyatlari keng ko‘lamda tasnif etilmoqda. Shuningdek, ularning konseptual-kognitiv mohiyati, derivatsion jarayonlari, semantik hamda sintaktik xususiyatlari, nutqdagi pragmatik vazifalari va kognitiv-pragmatik kategoriyalar bilan uzviy bog‘liqligi zamonaviy lingvistik izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbek tilida taqlid so‘zlarning alohida o‘rni bor bo‘lib, tilshunosligimiz tarixida turli davrlarda taqlid so‘zlarga turlicha yondashuvlar mavjudligi, tilimizda bunday so‘zlarning ko‘pligi, badiiy asarlarda taqlid so‘zlar orqali turli ma’noviy xususiyatlar yoritilishi muammoga keng ko‘lamda yondashishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “…o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ...til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va istiqboldagi vazifalar belgilab berildi”.[1] Shuning uchun ham tilimizdagi taqlid so‘zlarni chuqur tahlil qilishimiz, badiiy asarlarda bunday so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlarini aniqlashimiz, amalda bunday so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishimiz, taqlid so‘zlarning tilimizdagi o‘rnini xolisona baholashimiz lozim. Taqlid so‘zlarga o‘zbek tilshunosligida turli davrlarda turlicha munosabat mavjud bo‘lib, ularni tizimlashtirishimiz va yakuniy xulosalar chiqarishimiz zarur. Tilshunosligimizda bu turkum so‘zlarni, dastlab undovlarning bir ko‘rinishi sifatida, keyinchalik undovlardan ajratib, modal, undov so‘zlar qatorida qo‘shib “alohida guruhga xos” deb qaralganligi va ba’zi tadqiqotlarda mustaqil so‘z turkumlari qatorida mustaqil turkum sirasidan o‘rin olayotganligi ham

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni. // Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 21-oktyabr, №221-222(7723-7724).

ma’lum. Bunday qarashlarni tasniflash, hamda yakuniy xulosalar chiqarish bugungi kun tilshunosligi oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi VMQ-984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri – “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma’naviy-ma’rifiy jihatdan taraqqiy ettirish uchun innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish” doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunosligimizda taqlid so‘zlarning keng ko‘lamda o‘rganilishi XX asrning 60-70-yillaridan boshlanadi. Dastlab qisman bo‘lsa-da, taqlid so‘zlar kategoriyasi undovlardan ajratilib o‘rganilgan ishlar yuzaga keldi[2]. Xususan, 1957-yilda chop etilgan “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kitobida taqlid so‘zlar “mimemalar” sifatida tadqiq etiladi[3]. Tilshunos olim S.Mutalibov “Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk” kitobida bu turkum so‘zlarni “Taqlidiy so‘zlar” deb nomlaydi va o‘rganadi[4]. 1966-yilda nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida undovlar va taqlid so‘zlar insonning his-hayajon va tuyg‘ularini, tovushlarga taqlid qilish ma’nosini bildirishi haqida mulahaza yuritiladi[5].

O‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarning atroflicha o‘rganilishi taniqli olim R.Qo‘ng‘urovning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq. Olim o‘zining “O‘zbek tilida

[2]С.Усманов. Междометия в современном узбекском языке. – Ташкент, 1952; А.Н.Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л., 1960; У.Турсунов, Ж. Мухторов. Хозирги замон ўзбек тили, морфология. – Самарқанд, 1960.

[3]Хозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957.

[4]С.Муталлибов. Морфология ва лексика тарихидан кискача очерк. – Тошкент, 1959.

[5]Решетов В. В., Иброҳимов С. А., Турсунов У. Т., Камолов Ф. К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1966.

tasviriy so‘zlar” nomli monografiyasida va “Hozirgi o‘zbek tilida o‘zgarmaydigan so‘zlar” kitobida taqlid so‘zlar haqida atroflicha ma’lumot bergan[6]. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligiga doir tadqiqotlarning so‘z turkumlari klassifikatsiyasi keltirilgan bo‘limlarida taqlid so‘zlar haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tilgan. Taqlid so‘zlar o‘zbek tilshunosligida mimemalar, taqlidiy so‘zlar, tasviriy so‘zlar, taqlid so‘zlar va tasviriy birliklar kabi nomlanib o‘rganilgan. Bunday so‘zlar modal, undov so‘zlar qatorida alohida guruhga xos, ayrim-ayrim gruppa, alohida gruppa kabi guruhlar tarkibida alohida so‘zlar sirasidan o‘rin olgan bo‘lsa-da, keyingi yillardagi ba’zi tadqiqotlarda mustaqil so‘z turkumi sifatida qaraladi[7]. Taqlid so‘zlar kategoriyasi o‘rganilishi shu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Taqlid so‘zlar yuzasidan keyingi yillarda bir qator dissertatsiyalar yozildi[8]. O‘zbek tilida so‘z turkumlarini belgilashda taqlid so‘zlar muammoli turkum sifatida namoyon bo‘lib, so‘z turkumlarining miqdori borasidagi har xilliklarning deyarli barchasi ushbu turkum bilan bog‘liq. Taqlid so‘zlarni tadqiq etishda atoqli adib Tog‘ay Murod asarlarini tadqiq obyekti etib olinishining sababi, adib ijodida bunday so‘zlardan ko‘p va o‘rinli foydalangan holda o‘ziga xos uslubiy vazifalar ifodalashi ma’lum bo‘ldi. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligining turli kategoriyalarini o‘rganishda adib asarlariga murojaat etish kuzatiladi[9]. Tog‘ay Murod ijodiy materiallaridagi taqlid so‘zlar semantik-funksional jihatdan yaxlit monografik tahlil qilinmaganligi singari sabablar mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga asosan “O‘zbek tili birliklarining funksional-stilistik va kognitiv-pragmatik tahlili masalalari” mavzusidagi amaliy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Tog‘ay Murod asarlari matnidagi taqlid so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlarini tadqiq qilish. O‘zbek lisoniy qatlamida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan taqlid so‘zlarning so‘z turkumlari paradigmasida tutgan o‘rnini baholash, uning o‘ziga xos xususiyatlarini yangicha qarashlar asosida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

taqlid so‘zlar haqida jahon va o‘zbek tilshunoslari qarashlarini o‘rganib, taqlid so‘zlarning so‘z turkumlari paradigmasida tutgan o‘rnini xolisona baholash;

---

[6]Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Т.: Фан, 1966.; Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. II қисм. – Самарқанд, 1980.

[7]Элтазаров Ж. Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006; Муаллифлар жамоаси. Замонавий ўзбек тили, I жилд морфология. –Т.: Mumtoz so‘z, 2008.; Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R., Boqiyev G. H., Qurbonov M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan, 2010.

[8] Абдусаломов А. Тақлидий сўзлар лингвопоэтикаси. Фил.фан… фалсафа д-ри диссертацияси.–Тошкент, 2011. – Б. 127.; Алибоева Н. Ўзбек ва инглиз тилларида тақлид сўзларнинг қиёсий тадқиқи. Фил.фан… фалсафа д-ри диссертацияси. – Андижон, 2021. – Б. 129.; Kaxarova I. Ingliz va o‘zbek tillarida emotiv, taqlid va modal so‘zlarning lingvopragmatik tadqiqi. Fil. fan. d-ri dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024. – B. 210.

[9] Jo‘rayeva G. Tog‘ay Murod qissalaridagi lingvokulturemalarning lingvomadaniy xususiyatlari. Fil.fan… falsafa d-ri dissertatsiyasi. – Navoiy, 2024. – B. 131.; Кобилов Н. Тоғай Мурод киссаларининг лингвопрагматик хусусиятлари. Фил.фан… фалсафа д-ри дисс. автореф.– Самарқанд, 2021. – Б. 53.

Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning metaforik hamda shakl va ma’noviy xususiyatlarini o‘rganish;

taqlid so‘zlarning fonetik jihatdan shakllanishi masalalarini tadqiq etish;

Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan taqlid so‘zlarning struktural xususiyatlarini tahlil etish;

Tog‘ay Murod asarlari matnidagi taqlid so‘zlarning semantik xususiyatlarini tadqiq qilish;

taqlid so‘zlarning semantik tasnifini yangicha qarashlar asosida yoritishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida atoqli adib Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” nomli romanlari, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar” va “Momo yer qo‘shig‘i” nomli qissalari hamda “Ku-ku-ku…” nomli hikoyasi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini taqlid so‘zlarning atoqli adib Tog‘ay Murod asarlari matnida tutgan o‘rni, semantik-funksional vazifalari, struktural xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyoslash, tasniflash, tavsiflash, funksional-semantik tahlil, sistem tahlil, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

taqlid so‘zlarning o‘rganilish tarixiga doir boy faktik materiallar to‘plangan va taqlid so‘zlar paradigmasi doirasida sinonimiya, omonimiya va metaforik xususiyatlar kabi tizimli munosabatlarni aniqlash va farqlashga oid ilmiy-nazariy fikr va amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, adib asarlari matnida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlari, bunday so‘zlarning hosil bo‘lishida tabiiy tovush va harakat-holatlarning o‘rni masalalari ochib berilgan;

taqlid so‘zlarning hosil bo‘lishida, fonetik shakllanishida tabiatdagi tovush va harakat-holatlarning asos bo‘lishi, semantik guruhlanishida qattiq, yumshoq, suyuq va har xil mexanizmlar kabi jismlar tovushiga taqlid so‘zlarning hosil bo‘lishi, ko‘plab bir-biriga yaqin holatlar uchun bir taqlid so‘zning ishlatilishi, barcha o‘suvchi predmetlar uchun *gur-gur*, suyuq predmetlarning qaynashi yoki toshishi uchun *bilq-bilq*, to‘lganlik, joy qolmaganlik semasini bildirish uchun *liq-liq* harakat-holatga taqlid so‘zi qo‘llanilishi dalillangan;

badiiy matnda, xususan, Tog‘ay Murod asarlari matnida taqlid so‘zlarning individual ahamiyati, struktural, leksik-semantik tasnifi masalalari tahlil etilgan;

badiiy matnlarda har bir til birligining o‘z vazifasi bo‘lgani kabi taqlid so‘zlarning ham funksional vazifalari borligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan taqlid so‘zlarning struktural xususiyatlarini tadqiq etish orqali tilimizda ko‘p sonli bo‘lgan taqlid so‘zlarning umumstruktural jihatlari yoritildi;

taqlid so‘zlarning teng huquqli lingvistik hodisaligi, “So‘z”lik maqomiga egaligidan kelib chiqib, metaforik hamda shakl va ma’noviy xususiyatlari o‘rganildi;

Tog‘ay Murod asarlari matnidagi taqlid so‘zlar misolida tilimizdagi taqlid so‘zlarning semantik guruhlanish jihatlariga yangicha yondashildi. An’anaviy

tovushga taqlid va harakat-holatga taqlid singari bo‘linishiga yana bir guruh lisoniy birlikka taqlid so‘zlar guruhini qo‘shib o‘rganilsa, bunday so‘zlarning ko‘lami kengayishi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyaning ishonchliligi tadqiqotning nazariy asoslari nufuzli ilmiy manbalar negizida shakllantirilgani, tahlil uchun tanlangan dalillarning taqlid so‘zlarning semantik va funksional xususiyatlari nuqtayi nazaridan izchil yoritilgani, muammoning mohiyati to‘laqonli va tizimli tahlil qilingani, olingan ilmiy natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgani hamda tadqiqotning zamonaviy tilshunoslikning ilmiy yondashuvlari va konseptual qarashlari asosida amalga oshirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur ish ushbu so‘z turkumi bilan bog‘liq masalalarni yangi dalil va xulosalar asosidagi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishda, ijodkorning qarashini, ijodkorning poetik individualligini oson aniqlashda va kelgusida shu yo‘nalishdagi izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajarishda, mavjud xulosa va takliflar adiblar ijodini ilmiy yangilik va nazariyalar bilan boyitishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqotda taqlid so‘z turkumlarini o‘rganilish tarixiga oid boy material jamlangan va tahlil qilingan. Ish natijalari matn tahlili yuzasidan olib boriladigan kelgusi tadqiqotlarga turtki beradi, yangi ijodiy niyat va fikrlarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Oliy o‘quv yurtlarida morfologiya, leksikologiya, matn lingvistikasi hamda badiiy matn tahliliga oid fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tog‘ay Murod asarlarida taqlid so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalaridan, olingan xulosalaridan:

taqlid so‘zlarning o‘rganilish tarixiga doir to‘plangan boy faktik materiallaridan, taqlid so‘zlar paradigmasi doirasida sinonimiya, omonimiya va metaforik xususiyatlar kabi tizimli munosabatlarni aniqlash va farqlashga oid ilmiy-nazariy fikr va amaliy tavsiyalaridan, adib asarlari matnida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlari, bunday so‘zlarning hosil bo‘lishida tabiiy tovush va harakat-holatlarning o‘rni masalalariga doir mulohazalaridan 2024-2025-yillarda bajarilgan “Hozirgi qoraqalpoq tilidagi so‘z yasalish tizimining nazariy asoslari” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zRFAQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2026-yil 10-iyundagi 279/1-son ma’lumotnomasi). Natijada taqlid so‘zlarning semantik-funksional xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qilgan;

taqlid so‘zlarning hosil bo‘lishida, fonetik shakllanishida tabiatdagi tovush va harakat-holatlarning asos bo‘lishi, semantik guruhlanishida qattiq, yumshoq, suyuq va har xil mexanizmlar kabi jismlar tovushiga taqlid so‘zlarning hosil bo‘lishi, ko‘plab bir-biriga yaqin holatlar uchun bir taqlid so‘zning ishlatilishi, barcha o‘suvchi predmetlar uchun *gur-gur*, suyuq predmetlarning qaynashi yoki toshishi uchun *bilq-bilq*, to‘lganlik, joy qolmaganlik semasini bildirish uchun *liq-liq* harakat-holatga taqlid so‘zi qo‘llanilishi bilan bog‘liq xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO‘TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2022-2023-yillarda bajarilgan AL-442105872 raqamli “Kimyo atamalarining izohli lug‘atini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2026-yil 10-iyundagi 467-son ma’lumotnomasi). Natijada taqlid so‘zlarning hosil bo‘lishida tabiatdagi tovush va harakat-holatlarning moddiy asos bo‘lish jihatlari ilmiy asoslanishiga xizmat qilgan;

badiiy matnda, xususan, Tog‘ay Murod asarlari matnida taqlid so‘zlarning individual ahamiyati, struktural, leksik-semantik tasnifi masalalari tahlili bilan bog‘liq xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokanali DMning “FM 105.2 Samarqand” radiokanalida 2026-yil 15-iyun kuni efirga uzatilgan “Radiointervyu” eshittirishining navbatdagi son ssenariysini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokanalining 2026-yil 16-iyundagi 01-07-229-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu radiointervyu uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan;

badiiy matnlarda har bir til birligining o‘z vazifasi bo‘lgani kabi taqlid so‘zlarning ham funksional vazifalari borligi xususidagi ilmiy xulosalardan “Yulduz” ilmiy-ommabop, adabiy-badiiy, ijtimoiy-siyosiy gazetasida samarali foydalanilgan (“Yulduz” gazetasining 2026-yil 5-maydagi 65-34 YI-son ma’lumotnomasi). Natijada Tog‘ay Murod qalamiga mansub asarlarda qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning semantik-funksional vazifalarini kitobxonlar anglashida ilmiy asos vazifasini bajargan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari ilmiy jamoatchilik e’tiboriga 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda taqdim etilgan bo‘lib, shundan 3 tasi xalqaro, 4 tasi respublika miqyosidagi konferensiyalarni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Ularning 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda bosilgan bo‘lib, mazkur maqolalarning 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi hamda uni amalga oshirish zarurati asoslab berilgan, muammoning o‘rganilganlik holati tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti hamda predmeti yoritilgan, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilgan. Kirish qismida dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, erishilgan amaliy natijalari, olingan xulosalarning

ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi, mavzu doirasida e'lon qilingan ilmiy ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va umumiy hajmi haqida zarur ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Taqlid so'zlarning nazariy tadqiqi va o'rganilish tarixi"** deb nomlanib, unda jahon, turkiy va o'zbek tilshunoslarining taqlid so'zlarga doir nazariy qarashlari tahlil qilingan.

Mazkur bobning ***"Jahon tilshunosligida taqlid so'zlarning o'rganilishi"*** nomli birinchi faslida jahon va turkiy tilshunosligida taqlid so'zlarning o'rganilishi yuzasidan ilmiy-nazariy fikrlarga e'tibor qaratilgan. Jahon tilshunosligida taqlid so'zlarni o'rganilishining uzoq tarixi bor. Bu borada N.M.Shanskiy, S.Voronin, I.V.Arnold, H.Bredin, E.Laing[10] kabi bir qator olimlar munosib hissa qo'shishgan. Jahon tilshunosligida taqlid so'zlarning hosil bo'lish materiali asosan tovushga taqlid tomonidan o'rganiladi. Xususan, Xitoy tilidagi taqlid so'zlarga birinchilardan bo'lib ahamiyat qaratgan Ma Dziandjong taqlid so'zlarni "piktogrammalar va tovushlar uchun ishlatiladigan belgilar" deb ataydi. Xitoy tilshunosi Vang Li "Taqlid so'zlar atrofdagi turli tovushlarga taqliddan paydo bo'ladi, ular yozuvda va tilda aynan tovushni chiqarib berishi shart emas. Tabiiy tovushga ishora qilsa va uni tinglovchi tushunsa bo'ldi", - degan fikrlarni ilgari suradi[11]. Shuningdek, Yevropa tillaridagi onomatopoeia (taqlid so'z) termini nom berish ma'nosini ifodalaydi va olamdagi mavjud tovushlardan paydo bo'lgan so'zlar sifatida talqin qilinadi[12]. Taqlid so'zlarni tadqiq etish ingliz va rus tillarida keng ko'lamda olib borilgan. Ingliz tilshunosligida taqlid so'zlar va taqliddan shakllangan so'zlar onomatoplar deb atalalib, taqlid so'z turkumi onomatopeya deb yuritiladi. Mazkur termin yunon tilidagi *onoma* – "nom" va "*poi*" – "bermoq" so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan[13]. X.Bredin onomatoplarni "lisoniy kontekstda tovushga imitatsiya qilish natijasida yuzaga keluvchi tovush simvolizmi yoki tovush birikmasi" sifatida ta'riflaydi[14]. Ingliz tilida taqlid so'zlar asosan tabiatdagi turli tovushlarni nutq paytida nomlash deb qaralib, asosan tovushga taqlid so'zlar sifatida tadqiq etiladi. Ingliz tilida taqlid so'zlarning nomlanishi[15], strukturasi[16], tildagi maqomi borasida samarali ilmiy izlanishlar olib borilgan va olib borilmoqda.

---

[10]Шанский Н.М., Махмудов Ш.А. Филологический анализ художественного текста: книга для учителя: методический пособие. – Москва, 2013. – С. 257.; Воронин С. Фоносемантические идеи в зарубежном языкознании – СПБ.: Изд-во ЛГУ, 1990. – С. 200.; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 295.; Bredin H. Onomatopoeia as a Figure and a Linguistic Principle // New Literary History. – Johns Hopkins University Press. Volume 27, Number 3, Summer, 1996. – P. 555-569; Laing E. A phonological analysis of onomatopoeia in early word production. – First Language 2014\09\15 – P. 387.

[11] https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/10_Tashmuxamedova_Dildora_Aziz_qizi_65-70.pdf

[12] American Heritage Dictionary of the English Language, Fifth Edition, 2015.

[13] Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. 2-е изд., стер. – Москва: Сов. энцикл., 1969. – С. 157.

[14]Bredin H. Onomatopoeia as a Figure and a Linguistic Principle // New Literary History. – Johns Hopkins University Press Volume 27, Number 3, Summer, 1996. – P. 555–569.

[15] Бубрых Д.В. К проблеме изобразительной речи, "Уч. записки Карело-финского университета", т. III, вып. 1. 1948. – С. 85-94.

[16] Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 986. – С. 131.

Rus tilshunosligida birinchilardan bo‘lib tilshunos olim A.I.Germanovich taqlid so‘zlarni maxsus o‘rgandi[17]. Keyinchalik rus tilshunosligida taqlid so‘zlar bo‘yicha S.A.Karpuxin[18], I.A.Sharonov[19] va boshqalar[20] bir qator tadqiqotlar olib borgan. Rus tilidagi “звукоподражение” ya’ni taqlid so‘zlar morfologik sathda mustaqil va nomustaqil so‘zlardan alohida ajratilib o‘rganiladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tillarda taqlid so‘zlar asosan tovushga taqlid sifatida o‘rganilib, tasniflanishida ma’lum tovushning baland-pastligi, davomiyligi asosiy o‘rinda qaraladi. Har bir tildagi taqlid so‘zlarni xolisona baholash uchun o‘sha tilning fonetik, morfemik, morfologik hamda o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Turkiy tillarda taqlid so‘zlarning ilmiy jihatdan o‘rganilishi XX asrning yigirmanchi yillariga to‘g‘ri keladi. Turkiyshunoslikda taqlid so‘zlar paradigmasini o‘rganishni N.I.Ashmarin boshlab berdi. Olim o‘z ilmiy qarashlarida taqlid so‘z ma’nosidagi “mimema” terminining mohiyati, taqlid so‘zlarning grammatik xususiyatlari, shuningdek, taqlid so‘zlarning morfologik guruhlarini aniqlab, ularni boshqa turkiy tillar materiallari bilan chog‘ishtirib, tillardagi taqlid so‘zlarning o‘xshash formalarini ko‘rsatadi[21]. N.A.Baskakov undov va taqlid so‘zlarni bir hodisa deb qarasa-da, turkiy tilshunoslikda birinchi marta taqlid so‘zlarni semantik tomondan tovushga taqlid so‘zlar va harakat-holatga taqlid so‘zlar deb ikki guruhini farqlaydi[22]. Turkiy tilshunoslikda taqlid so‘zlarni undovlardan alohida kategoriya sifatida o‘rganilishi L.N.Xaritonovning ilmiy izlanishlarida birinchi bo‘lib o‘z aksini topadi[23]. Shuningdek, qozoq[24], turk[25] va qirg‘iz[26] tillarida ham taqlid so‘zlar turli darajada tadqiq etiladi.

Turkiyshunoslikda taqlid so‘zlar paradigmasi o‘rganilishining yuz yildan ortiq bo‘lgan tarixi bor bo‘lib, har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari, xalqlarning milliy mentaliteti xususiyatlaridan kelib chiqib tadqiq etish taqlid so‘zlar paradigmasining har bir tildagi o‘ziga xos va mushtarak jihatlarini ko‘rsatib beradi.

---

[17] Германович А.И. Звукоподражание и звукоподражательные слова русского языка. Том XII. – Симферополь, 1947.

[18] Карпухин С.А. Звукоподражательные слова в русском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: 10.02.01. – Саратов, 1979. – С. 19.

[19] Шаронов И.А. Междометие в языке, в тексте и в коммуникации. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук: 10.02.01. – М., 2009. – С. 36.

[20] Шестакова О.В. Универсальное и специфическое в ономатопее (на материале нем и рус языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Пермь 2013; Тишина Е.В. Русская ономатопея: диахронный и синхронный аспекты изучения): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2010.

[21] Ашмарин Н.И. Основы чувашской мимологии. – Казань, 1918.; О морфологических категориях подражаний в чувашском языке. – Казань, 1928.

[22] Н. А. Баскаков. Каракалпакский язык, II, фонетика и морфология, часть первая, М., Изд-во АН СССР, 1954. – С. 239-259.

[23] Л.Н. Харитонов. Неизменяемые слова в якутском языке, Изд-во ЯАССР, Якутск, 1943. – С. 56-69.

[24] Dr.Oğuz DOĞAN, Yrd. Doç.Dr. Kenan KOÇ, (2013): Kazak Türkçesi Grameri, İstanbul: 2-Baski IQ Kültür Sanat Yayıncılık. – S. 320.

[25] Xudoyberganova Z., Hamidov X. Turk tilining nazariy grammatikasi.-Toshkent, 2015. – B. 20.; Prof. Dr. Zeynep Korkmaz, Türkiye türkçesi grameri.- Ankara, 2009. – B. 1147.; Tahsin Banguoğlu, Türkçenin grameri.- Ankara, 2015. – B. 155.; Zulfikar, H. Turkcede Ses Yansımalı Kelimeler. Ankara: Turk Dil Kurumu Yay, 1995.

[26] Кудайберганов С. Подражательные слова в киргизском языке. – Москва, 1959. – С. 59.; Б.М.Юнусалиев. Киргизская лексикология, часть 1; (Развитие корневых слов), Фрунзе, Киргизучпедгиз, 1959. – С. 152-187.

Bobning ***“O‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarga oid nazariy qarashlar”*** nomli ikkinchi faslida o‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarning o‘rganilishi yuzasidan ilmiy-nazariy fikrlarga e’tibor qaratilgan.

O‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarning keng ko‘lamda o‘rganilishida R.Qo‘ng‘urovning xizmatlari beqiyos. Ungacha ham taqlid so‘zlar paradigmasi yo‘l-yo‘lakay o‘rganilgan. Xususan, 1934-yilda maktablar uchun chiqarilgan “Grammatika” kitobida so‘zlarni turkumlarga ajratishda so‘z turkumlari qatorida tovushga taqlid so‘zlar ham farqlanadi[27]. 1957-yilda chop etilgan “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kitobida taqlid so‘zlar undov-mimemalar deb bir turkum sifatida qayd etiladi va o‘zbek tilshunosligida birinchi marta modal so‘zlar hamda undov-mimemalar “ayrim-ayrim to‘da” sifatida ajratiladi[28]. Tilshunos olim S.Mutallibov o‘zining “Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk” kitobida bu turkum so‘zlarning umumiy nomini taqlidiy so‘zlar deb nomlaydi va tadqiq etadi[29].

O‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlarning keng ko‘lamda o‘rganilishi XX asrning 60-70-yillaridan boshlangan. Tilshunos olim R.Qo‘ng‘urov “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” nomli monografiyasi va “O‘zbek tilida o‘zgarmaydigan so‘zlar” II qism[30] kitobida taqlid so‘zlar kategoriyasini atroflicha tadqiq etadi. Olim barcha ishlarida bu so‘z turkumining umumiy nomini “Tasviriy so‘zlar” deb o‘rganadi. Shuningdek, tilshunos olim J.Eltazarovning ilmiy izlanishlarida ham bu turkum so‘zlarning umumiy nomi “Tasviriy so‘zlar” termini ostida tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida alohida so‘z turkumlaridan biri bo‘lgan taqlid so‘zlar uchun birdan ortiq termin qo‘llanadi. Masalan: taqlid so‘z, tasviriy so‘z, mimema, taqlidiy so‘z kabi terminlar shular jumlasidandir[31]. Ushbu turkum nomlanishida qo‘llanilayotgan har xil terminlar haqida fikr yuritib, Sh.Rahmatullayev: “tasvir birliklari” deb nomlash kerakligi haqida mulohaza yuritadi[32]. Taqlid so‘z termini tovushga taqlid so‘zlarga yaqin bo‘lsa ham harakat-holatga taqlid so‘zlarni qamrab ololmaydi. Tasviriy so‘z termini ham harakat-holatga taqlid so‘zlarga tovushga taqlid so‘zlarga nisbatan yaqinroqdir. Taqlid so‘zlar keyingi yillardagi bir qator tadqiqotlarda ham tadqiqot obyekti bo‘lib[33], tilshunosligimizda o‘zining munosib o‘rniga va maqomiga ega bo‘lib bormoqda. O‘zbek tilshunosligida taqlid so‘zlar yuz yillik o‘rganilish tarixiga ega bo‘lib, bunday so‘zlar dastlab morfologik sathda undovlar bilan bir kategoriya sifatida qaraladi. Izlanishlar davomida alohida turkum

---

[27]Элтазаров Ж. Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар.- Самарқанд: 1996. – Б. 102-105.

[28]Ҳозирги замон ўзбек тили.-Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б. 303.

[29] С. Муталлибов. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк, Тошкент, 1959. – Б. 210.

[30]Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. -Т.: Фан, 1966.; Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар, II қисм.-Самарқанд: 1980. – Б. 30.

[31] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 63.

[32]Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. (Дарслик) – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 213-214.

[33] Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 147.; Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 166.; Абдурасулов Ё. Структура подражателных слов в узбекском языке: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Л., 1972; Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 122.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 58.; Алибоева Н.М. Ўзбек ва инглиз тилларида тақлид сўзларнинг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсаф. докт. дисс. автореф. – Андижон, 2021. – Б. 51.; Turayeva D.D. O‘zbek va rus tillarida tasviriy birliklar tipologiyasi va o‘zaro tarjimasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. diss. avtoref. – Buxoro, 2023. – B. 56.

so‘zlar sifatida “alohida”ligi e’tirof etilib, modal va undov so‘zlar qatorida alohida guruhga xos so‘zlar sifatida o‘rganiladi[34]. Keyingi yillardagi tadqiqotlarda fe’l va otlar orasida mustaqillashuvi aytilib[35], mustaqil so‘z turkumi sifatida ham tadqiq etilmoqda[36].

“Taqlid so‘z” termini mazmun jihatidan “tasviriy so‘z” terminiga nisbatan torroq semantik qamrovga egadek ko‘rinadi. Chunki “taqlid so‘z” tushunchasi, asosan, tabiatda yoki atrof-muhitda yuzaga keladigan tovushlarni ifodalovchi birliklarga nisbatan ancha mos tushadi. Biroq u harakat va holatni aks ettiruvchi barcha til birliklarini to‘liq qamrab olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, “tasviriy so‘z” atamasi harakat-holatni ifodalovchi birliklarning mazmun-mohiyatini aniqroq yoritadi.

Ma’lumki, inson voqea va hodisalarni ayrim hollarda hech qanday nutqiy vositalarsiz, faqat imo-ishora yoki harakat orqali taqlid yo‘li bilan ifodalashi mumkin. Ammo mazkur jarayonda til birliklari ishtirok etganda, oddiy taqlid emas, balki voqelikni tasvirlash hodisasi yuzaga keladi. Shuningdek, inson tabiatdagi fizik yoki biologik tovushlarni nutqda aynan takrorlashni emas, balki ularni til vositalari yordamida ifodalashni maqsad qiladi. Demak, bunday birliklarning qo‘llanilishida nafaqat taqlid qilish, balki voqelikni obrazli va aniq tasvirlash ehtiyoji ham muhim o‘rin egallaydi. Shunday bo‘lsa ham tadqiqotda terminlar bilan bog‘liq chalkashliklar bo‘lmasligi uchun “Taqlid so‘z” termini ostida o‘rganildi.

Tadqiqotning **“Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan taqlid so‘zlarning funksional-struktural xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobining birinchi fasli ***“Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning metaforik hamda shakl va ma’noviy xususiyatlari”*** deb nomlanadi.

Taqlid so‘zlar tilda o‘z aksini topib, so‘z degan maqomga ega bo‘lar ekan; tilshunoslar tomonidan tilning bir bo‘lagi, boyligi sifatida tadqiq etilar ekan; badiiy asarlarda yozuvchi hamda shoirlar tomonidan ifoda etilar ekan; bunday so‘zlar ham so‘z o‘laroq “so‘z”ning bir qator xususiyatlariga egadir.

Metaforik xususiyat kasb etgan taqlid so‘zlar tovushga taqlid birliklari singari bevosita eshitilgan tovushlarning taqlidi yoki harakat-holatni ko‘rish orqali yuzaga kelgan tasvir mahsuli hisoblanmaydi. Ular, avvalo, inson ongida muayyan obraz va hissiy taassurotni shakllantiruvchi til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday taqlid so‘zlar kishining ruhiy kechinmalari, hissiy holati va ichki kechirmalarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi hamda nutqning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini kuchaytiradi. Ma’lum darajada hissiyotni bildirishi bilan undovlarga yaqin tursa ham taqlid so‘z hisoblanadi: *Hayron bo‘lib, devordan bo‘yladim. Eb-e-eb-e! Darvozamiz oldida militsiya mashinasi turibti! Sap-sariq! Ko‘nglim,* ***shig‘g‘*** *etdi. Etlarim uvushdi. Ichimda nimadir bir nima o‘prilib tushdi* [OKO-227] kabi.

---

[34] Ўзбек тили грамматикаси. I том. -Т.: Фан, 1975. – 123-б.; Абдураҳмонов Ш., Асқарова М., Хожиев А., Расулов И., Донёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм.- Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 213.; Асқарова М., Абдураҳмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. -Т.:Ўқитувчи, 1981. – Б. 55.; Абдураҳмонов Х., Рафиев А., Шодмонқулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 119.

[35]Элтазаров Ж. Д. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар.- Самарқанд: 1996. – Б. 102-105.

[36] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyev G.H., Qurbonov M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T.: Fan, 2010. – B. 368.

Inson ichki kechinmalarini ifodalaydigan metaforik xususiyatlarga ega bo‘lgan taqlid so‘zlar bir guruhni tashkil etsa, insonning tashqi sezgi a’zolari va boshqa predmetlar bilan bog‘liq bo‘lgan metaforik xususiyatlarga ega bo‘lgan taqlid so‘zlarni ham alohida bir guruh sifatida qaralsa bo‘ladi: *Barmoqlarim orasidan dardlarim* ***duv-duv*** *to‘kildi* [OQD-225] kabi.

Taqlid so‘zlar tizimida ham sinonimiya hodisasi keng taraqqiy etgan. Adib yig‘lash holatiga taqlid sifatida 14 ta taqlid so‘z qo‘llaydi. Bir necha sinonimik so‘zlar bir hodisani ko‘rsatish uchun xizmat qilsa ham, har bir sinonimik so‘z anglatgan ma’no o‘zining ma’lum ma’no nozikligi bilan ikkinchisidan farq qiladi.

Atoqli adib Tog‘ay Murod sinonimik xususiyatga ega bo‘lgan taqlid so‘zlardan asar qahramonlari xarakter xususiyatlarini ochib berishda va kitobxonga oq-qorani yorqinroq ko‘rsatib berishda samarali, juda o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan yozuvchidir. “Otamdan qolgan dalalar” romanida: ***qars-qars qarsak*** *bo‘ladi* va ***chalp-chalp chapak*** *bo‘ladi*. [OQD-89-90] tarzida qo‘llash orqali kitobxonga zalvorli fikrlarni anglata oladi.

Omonim so‘zlar kabi taqlid so‘zlarning ham semantikasi nutq vaziyati hamda matnda o‘z aksini topadi. Bu xususiyati bilan omonimlar va taqlid so‘zlar bir-biriga yaqin turadi, deyish mumkin. Tog‘ay Murod o‘z asarlarida omonimik xususiyatga ega bo‘lgan taqlid so‘zlardan ham ko‘p o‘rinlarda samarali foydalanadi. Masalan: *zir-zir* taqlid so‘zi tezlik, og‘riq va predmetlarni bir-biriga urilish jarayonini ifodalash uchun qo‘llanilgan: *Bir mahal, o‘t hovlini aylanib chopdi! Men tashqari otilib chiqdim. Qarab turdim: o‘t hovlida* ***zir-zir*** *aylanib chopdi* [OQD-221]!, *“Sadist” etigi uchi bilan tag‘in chap biqinim tepib-tepib oldi. Chap biqinim haminqadar* ***zir-zir*** *qaqshadi* [OQD-288]., *Avtomatchilar yelkamdan turtib-turtib ichkari haydadi. To‘pponchalik to‘pponchasi bilan derazamizni* ***zir-zir*** *urdi. Ichkari chiroq yondi* [OQD-276] kabi.

Bobning ***“Tog‘ay Murod asarlarida taqlid so‘zlarning fonetik strukturasi”*** nomli ikkinchi faslida adib asarlari matnida uchraydigan taqlid so‘zlarning fonetik shakllanishi haqida ma’lumot berilib, misollar asosida tahlil qilingan.

Taqlid so‘zlarning fonetik shakllanish jihatiga bu turkum so‘zlar ilk o‘rganilgan paytlarda ham, undan keyingi biz yuqorida ko‘rib chiqqan bir qator ishlarda ham qisman e’tibor qaratilgan bo‘lib, asosan taqlid so‘zlarning fonetik jihati haqida so‘z yuritganda juft va takroriy taqlid so‘zlar tarkibidagi tovushlarning o‘zgarishi yoki bir tovushning orttirilishini aytish bilan cheklaniladi. Nutq tovushlari va tabiatdagi tovush va harakat-holatlarning bog‘liqlik jihatlari, unli va undosh tovushlarning fonetik xususiyatlarining so‘z ma’nosiga ta’siri masalalariga yetarlicha ahamiyat qaratilmay qolganligi kuzatiladi. Tilning ijodkori ham, foydalanuvchisi ham, rivojlantiruvchisi ham inson ekan. Taqlid so‘zlarning fonetik shakllanib, so‘zlik maqomiga erishish jarayonini tahlil etishda ham shu rakursdan qarash o‘rinli bo‘ladi.

Adib asarlarida **e** va **o** unlilari ishtirok etgan taqlid so‘zlar uchramaydi. Shuningdek, **o‘** unlisi ishtirok etgan taqlid so‘zlar sanoqli bo‘lib, nisbatan kam ishlatilgan. Tovushga taqlid so‘zlarda ma’lum tovushni baland yoki pastligini, moddiy asos bo‘lgan predmetning ko‘p yoki kamligini ifodalashda ham unlilar o‘z o‘rniga ega: **a** va **u** unlilari ishtirok etgan taqlid so‘zlar **i** unlisi ishtirok etgan taqlid

so‘zlardan shu xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan: *tars-tirs, taq-tiq, shar-shir* yoki *g‘ur-g‘ir* kabi.

Taqlid so‘zlarning fonetik shakllanishida unli fonemalarda bo‘lgani kabi undosh fonemalar orasida ham so‘z boshida va so‘z oxirida faol qo‘llaniladigan yoki nofaol bo‘lgan undosh fonemalar mavjud. Adib asarlari matnida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning boshida **p, t, j, sh, g, q, m, g‘, h, l, ch, b, d, y, x, v** undosh fonemalari faol ishtirok etsa, **k, z, s** undoshlari nisbatan nofaol qo‘llanilgan. **N, f, r** undoshlari bilan boshlanadigan taqlid so‘zlar uchramaydi.

Adib asarlarida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning oxirida keladigan undosh tovushlar ham faolligi va nofaolligi bilan bir-biridan zidlanadi: **r, p, q, t, s, ng, v, g‘, z, k** undoshlari so‘z oxirida to‘rt marta va undan ko‘p uchragani bois faol bo‘lsa, **l, ch, y, x, f, j, sh, d, h, m** undoshlarini uch marta va undan kam so‘zlar oxirida kelganligi uchun nofaol deb hisoblaymiz. Faol undoshlarning ham faollik darajasida tafovutlar bor. Ayrimlari ko‘p hollarda qo‘llanilsa, ayrimlari nisbatan kamroq holatlarda qo‘llaniladi. Nofaol undoshlar esa taqlid so‘zlar oxirida ayrim holatlardagina uchraydi. Masalan, **j** undoshi *bij-bij, g‘uj-g‘uj, g‘ij-g‘ij* so‘zlarida, **sh** undoshi *pish-pish, vishsh-vishsh* so‘zlarida, **d** undoshi *bid-bid* so‘zida, **h** undoshi *qah-qah* so‘zida va **m** undoshi *chim-chim, sim-sim, yum-m-yum-m* so‘zlari so‘ngida qo‘llanilgan. Adib asarlari matnidagi taqlid so‘zlarning oxirida faqat **r, v, z, m, g‘, sh** undoshlari takror holatda qo‘llanilgan bo‘lsa, **b, n, g** bilan tugaydigan taqlid so‘zlar uchramaydi. Kuzatishlarimiz davomida adib asarlari matnidagi taqlid so‘zlarning boshida ham, oxirida ham faqat **n** tovushi umuman qo‘llanilmaganligining guvohi bo‘ldik.

Bobning uchinchi fasli **“*Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan taqlid so‘zlarning struktural xususiyatlari*”** deb nomlangan.

Tabiatdagi tovush, harakat va holat shakllari qancha ko‘p bo‘lsa, ularni ifodalovchi taqlid so‘zlar ham shuncha ko‘p bo‘lib, struktural jihatdan ham shuncha xilma-xil bo‘ladi. Mazkur tovush, harakat-holatlarni asliga imkon qadar yaqin ifodalash uchun fonetik shakllanishi ham o‘ziga xoslik kasb etadi.

Bizning kuzatishlarimiz bo‘yicha Tog‘ay Murod asarlari matnida mustaqil fe’llar bilan ham, yordamchi fe’llar bilan ham birikib kelgan sodda shakldagi taqlid so‘zlar talaygina. Adib asarlarida sodda taqlid so‘zlarning bir va ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lganlari ko‘plab uchraydi. Lekin uch va undan ortiq bo‘g‘indan iborat bo‘lgan sodda taqlid so‘zlar uchramaydi. Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning ana shu xususiyatlariga qarab bir necha struktural jihatdan o‘ziga xosliklarini sanash mumkin:

-mustaqil fe’llar bilan birikib kelgan sodda taqlid so‘zlar: *Shamol mo‘rt daraxtlar bargini* ***duv*** *to‘kdi* [OQD-127];

-yordamchi fe’llar bilan birikib kelgan sodda taqlid so‘zlar: *Qimmat momo* ***lik*** *etib joyidan turdi. Ko‘ylak yoqalarini ko‘tarib ichiga tuf-tufladi* [OYO-79].

Bir bo‘g‘inli sodda taqlid so‘zlar ham bir necha shakllarga ega:

- oddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan sodda taqlid so‘zlar: *tap, lip* kabi;

-so‘z oxirida juft yoki takror undoshlar ishtirok etgan sodda taqlid so‘zlar: *jalp, gurr, milt* kabi.

Ikki bo‘g‘inli sodda taqlid so‘zlar. Jonli tilimizda ko‘pincha bir bo‘g‘inli taqlid so‘zlarga -ir, -(a)ng kabi qo‘shimcha ma’no kuchaytiruvchi ottenkalar beruvchi struktura elementlarining qo‘shilishi bilan ikki bo‘g‘inli taqlid so‘zlar hosil bo‘ladi. Masalan: *taq / taqir, shiq / shiqir, tap / tappa* kabi. Bunday holatlarda taqlid so‘zlarning formal va ma’no jihatidan kengayishi yuz beradi.

Ammo ayrim ikki bo‘g‘inli sodda shaklga ega bo‘lgan taqlid so‘zga nisbatan yuqoridagi ta’rifni to‘la mos tushadi, deyish qiyin. Masalan: *apil-tapil, alang-jalang* kabi. Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llanilgan sodda bir bo‘g‘inli taqlid so‘zlardan sodda ikki bo‘g‘inli taqlid so‘zlar nisbatan kamroq qo‘llanilgan.

Ko‘pincha taqlid so‘zlarni sodda, juft yoki takroriy bo‘lishida, qo‘shimcha elementlar olishida, umumiy aytganda har qanday taqlid so‘zni shakllanishida so‘zlovchi (nutq egasi)ni taqlid so‘zni hosil bo‘lishida asos bo‘lgan tovush va harakat-holatni qanday qabul qilishi, qay tarzda ifodalashga qaratilgan lisoniy maqsadi va ichki kechinmalarini qay holatda tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazib berishga qaratilgan lisoniy harakati muhim ahamiyat kasb etadi.

Taqlid so‘zlar takrorlanganida tovush yoki harakat-holatning bir necha marta bir xilda takrorlanib kelishi miqdor, kuchaytirish, davomlilik kabi ma’nolarni ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Takroriy taqlid so‘zlar oddiy: *guvv-guvv, qiy-qiy, chuv-chuv* va bir unli tovush orttirilishi bilan hosil bo‘lishi mumkin: *taqa-taq* kabi. Tovush yoki harakat-holat davomiyligini yanada kuchaytirib ko‘rsatish uchun har ikkala komponentga ham unli tovush (asosan **a** unli tovushi) orttirilishi mumkin: ***G‘arra-g‘arra*** *qusishdan armonim qolmadi* [OQD-243]kabi.

Adib “Otamdan qolgan dalalar” asarida takroriy taqlid so‘zni tasvirlanayotgan holatning davomiylik semasini uzaytirish va emotsional-ekspressivlikni oshirish maqsadida struktural jihatdan noan’anaviy shaklda qo‘llaydi: *Ziyodni onasi betini bilaklariga bosadi. Ziyodni onasi* ***iz-z-iz-z*** *yig‘laydi. Ziyodni onasi* ***yum-m-yum-m*** *yig‘laydi* [OQD-103] kabi.

Juft taqlid so‘zlar o‘zlarining tuzilish va ifodalagan ma’nolari jihatidan takroriy taqlid so‘zlardan farqlanadi. Juft taqlid so‘zlar bir hodisaning turli xil o‘zgarib turishini, bir tovush yoki harakat-holatning goh kuchayib, goh pasayishi, ba’zan esa goh yaqinlashish, goh uzoqlashish kabilarni ifodalaydi. Bu takroriy taqlid so‘zlar komponentlaridan birida unli yoki undosh tovushning o‘zgarishi: *jarang-jurung, taraq-turuq* singari, ba’zan ikkinchi komponentga bir undosh tovushning orttirilishi: *Yo‘ldosh qorovul* ***hang-mang*** *bo‘ldi* [OYO-98], orqali juft taqlid so‘zlar hosil bo‘ladi. Juft taqlid so‘zlarni hosil bo‘lishida so‘zlovchi tomonidan ifodalanayotgan tovush va harakat-holatni ahamiyati katta. Undagi o‘zgarish va har xillik, albatta, so‘zlovchi nutqiga ham ko‘chadi. Tog‘ay Murod asarlarida taqlid so‘zlarning qo‘llanilishida yuqorida keltirilgan holatlardan tashqari ham adib uslubi va faqat o‘ziga xos ohangdoshlikni namoyon qiluvchi holatlar ham mavjud: adib asarlarida takroriy va juft taqlid so‘zlarning shakliy jihatdan ta’kidlash semasini oshirish maqsadida noananaviy shaklda qo‘llaniladi: *Ayolimiz satilni er* ***darang-duringlatib*** *tashladi. Ayolimiz choynakni dasturxon* ***do‘q-do‘qillatib*** *qo‘ydi* [OQD-132]; takroriy taqlid so‘zlarning ikkinchi komponenti otlashgan holatda ham qo‘llanishi yuz beradi: *Boshi uzra o‘tmish Olloyor oti* ***dupur-dupuridan****... dupur-dupuridan qalt-qalt qaltiraydi* [OYO-50]; taqlid so‘zlardan yasalgan so‘zlar va

